XALQ DEPUTATLARI VOBKENT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 11-fevral VII-7-19-2-33-K/25 Vobkent tumani

Vobkent tumanida “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini yanada samarali yoʻlga qoʻyish toʻgʻrisida

Soʻngi yillarda mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali aholi ongida shakllangan “suv — tekin” tushunchasidan voz kechish hamda suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalarini kengaytirilgan tartibda joriy etishni davom ettirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar tumanimizda ham tizimli davom ettirilib kelinmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi boʻgʻinda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 79-sonli qarorlariga asosan tumandagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini samarali yoʻlga qoʻyish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27 va 127-moddalariga asosan hamda “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 79-sonli qaroriga muvofiq quyidagilar:

- suv xoʻjaligi tashkilotlari tomonidan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga suv yetkazib berish xizmatlari uchun toʻlovlar bekor qilinganligi;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tushgan tushumning 40 foizi suv yetkazib berish xizmatlari faoliyatini moliyalashtirish, ularga tegishli obyektlarni saqlash va texnik holatini yaxshilash xarajatlariga yoʻnaltirilishi;

- 2024-yilgi tasdiqlangan mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini suv soligʻining prognoz qilingan summasini 40 foizga teng miqdorda oshirish yuzasidan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga;

- suv soligʻi tushumi past boʻlgan tuman (shahar)larda suv yetkazib berish xizmatlari xodimlari ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlarni amalga oshirish uchun yetishmaydigan mablagʻlarni irrigatsiya boʻlimlarini saqlash xarajatlari uchun mahalliy byudjetlarda ajratilgan mablagʻlarni tuman (shahar)lar byudjetlari oʻrtasida qayta taqsimlash boʻyicha Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga taklif kiritish belgilanganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. Xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Vobkent tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VI-105-242-2-33-K/23-sonliqaroriga asosan 4-ilovasiga muvofiq belgilangan suv soligʻining prognoz qilingan summasi 40 foizga oshirilganligi inobatga olinsin.

4. “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini moliyaviy taʼminlash maqsadida belgilangan tartibda asosan cuv soligʻidan qarzdorligi hamda hisoblanishi kutilayotgan soliqlar hisobiga mahalliy byudjetning 2024-yil uchun belgilangan daromadlari va xarajatlari miqdorini 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, soliq tushumlari prognoz koʻrsatkichini oshirilishida qishloq xoʻjaligi korxonalari uchun yil davomida suv yetkazib berish hajmining oʻsishi koʻzda tutilganligi inobatga olinsin.

5. Tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi (A.Barotov), tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi, tuman gʻaznachilik xizmati (F.Toʻrayev)ga tuman hokimligi bilan birgalikda:

- qishloq xoʻjaligi korxonalarining suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq toʻlovidan tegishli mahalliy byudjetiga haqiqatda kelib tushgan mablagʻlarni 40 foizini har oy yakuni boʻyicha belgilangan muddatlarda tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasining byudjetdan tashqari gʻazna hisob-varagʻiga amaldagi qonunchilik talablari asosida oʻtkazilishini taʼminlasin.

6. Tuman hokimining oʻrinbosarlari (M.Malikov, O.Noʻkarov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Xolmurodov) Vobkent tumanida qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlarni sugʻorish va baliqlarni yetishtirish (oʻstirish) uchun foydalanilgan suv hajmi, shu jumladan, dehqon xoʻjaliklari va qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlarga ega boʻlgan jismoniy shaxslar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq toʻlovlarini belgilangan muddatlarda undirish choralarini koʻrsin.

7. Tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi (Sh.Aʼzamov)ga tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi (A.Barotov) bilan birgalikda tumanda suv yetkazib berish xizmati xodimlari ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlarni amalga oshirish uchun yetishmaydigan mablagʻlarni irrigatsiya boʻlimini saqlash xarajatlari uchun mahalliy byudjetdan ajratilgan mablagʻlarning maqsadli va samarali sarflanishi boʻyicha belgilangan tartibda hisobotlarni har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiya muhokamasiga kiritib borsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi (A.Qurbonov) hamda tuman hokimining oʻrinbosarlari (M.Malikov, O.Noʻkarov) zimmasiga yuklansin.

9. Ushbu qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



BOBOQULOV
BAXTIYOR
DAVRONOVICH

Xalq deputatlari Vobkent tumani
Kengashining
2025-yil 11-fevraldagi
VII-7-19-2-33-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Vobkent tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini moliyaviy taʼminlash maqsadida tegishli mahalliy byudjetning 2024-yil daromadlari va xarajatlarini oshirish

MIQDORLARI

mln soʻmda

№	Tuman nomi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq prognozi	2024-yilda suv solig‘i bo‘yicha tushumlarni 40 foizga oshirish rejasi	2024-yilda “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalarini saqlash uchun xarajatlarni oshirish rejasi
1.	Vobkent tumani	5 920,8	2 368,0	2 368,0